



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
IV chorak O'zbekiston tarixi fanidan*

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 7-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan IV chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Mintaqada islom dinining yoyilishi	1		
2.	Ta’lim	1		
3.	Ta’lim	1		
4.	Aql-zakovat bilan bunyod etilgan boy	1		
5.	Aql-zakovat bilan bunyod etilgan boy	1		
6.	IX-XII asrlarda ilm-fan va madaniyatning yuksalishi	1		
7.	Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy	1		
8.	Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy	1		
9.	7-Nazorat ishi	1		
10.	Ahmad Farg‘oniy	1		
11.	Ahmad Farg‘oniy	1		
12.	Abu Nasr Farobiy	1		
13.	Abu Rayhon Beruniy	1		
14.	Abu Ali ibn Sino	1		
15.	8-Nazorat ishi	1		
16.	Yakuniy umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Mintaqada islom dinining yoyilishi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma’lumotlarni berish, ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish..

Tarbiyaviy: tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta’sirini tushuntira olish va o‘zining mustaqil munosabatini bildirga olish, tarixdan to‘g‘ri saboq chiqarish ko‘nikmalari shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish, milliy qadriyatlarining mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni, ahamiyati haqida tushuncha berish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlash olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

III. Yangi mavzu bayoni:

Islom dinining yoyilishi

IX-XII asrlarda islom dini O‘rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o‘ynay boshladi. Movarounnahrda bu davr arab xalifaligidan mustaqil bo‘lgan davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi davri bo‘lgan. Islom bu vaqtda Sharqda keng tarqalib, jahon dini darajasiga ko‘tarildi, musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Arab tilida ilmiy asarlar yozildi. Azaldan savodli bo‘lgan, madaniyati yuqori darajaga ko‘tarilgan Turon xalqi tez orada nafaqat arab tilini, balki islom ilmlarini ham chuqur o‘rganib, arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni yetishtirib chiqara boshladi. Shaharlarda masjid-u madrasalar qurilishiga e’tibor berila boshlandi. Manbalarning darak berishicha, Buxoroda dastlabki madrasalar VIII-IX asrlardan boshlab barpo qilingan. Hatto qonunshunoslar uchun

ham maxsus «Faqihlar madrasasi» degan ixtisoslashtirilgan madrasa qurilgan. Bunday bilim maskanlarida Qur'oni karim, hadis ilmi va shariat asoslari har tomonlama mukammal o'rganilgan. O'sha davr shaharlari orasida islom dini ta'limotini chuqur targ'ib qilishda Buxoro shahri alohida o'rinni egalladi. Yuqorida qayd qilinganidek, madrasayu, maktablarning borligi bu yerda ilohiyot fani bo'yicha yirik olimlarning yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Buxoro shu davrdan boshlab «Qubbatul islom» – «Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topa boshladi. Sekin-asta islom dini markazlashgan davlatning asosiy mafkurasiga aylandi. ... Tilingni yaxshi hunar bilan o'rgatgil va muloyim so'zdan boshqa narsani odat qilmagil. Nedinkim, tilga har nechuk so'zni o'rgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlatgil, so'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, gar chand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so'zlamagilki, foydasizdur. Bunday befoyda so'z ziyon keltirur va har so'zki undan hunar isi kelmasa, bunday so'zni gapirmaslik lozim.




Kaykovus, «Qobusnoma»

Bugungi kunda Markaziy Osiyo musulmonlarining aksari hanafiylik mazhabiga ergashadi. Ayni damda mazkur fiqhiy ta'limot Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Turkiya va qator Afrika mamlakatlarida keng tarqalgan.

Molikiylik mazhabi asoschisi, imom Abu Abdulloh Molik ibn Anas 711-yilda tavallud topgan. Mazkur mazhabda birinchi manba Qur'oni karim, ikkinchi manba hadis hisoblanadi. Molikiylik mazhabida shar'iy masalalarda Madina hayoti va odatlari ko'p hollarda ustun turgan. Molikiylik Marokash, Jazoir, Tunis, Bangladesh kabi mamlakatlarda asosiy mazhab hisoblanadi.

Shofe'iylik mazhabi asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris Shofe'iy (767–804). Shofe'iylik mazhabi fiqhiy hukm chiqarishda Qur'on, sunnat, ijmo va qiyosga suyanadi. Ular hanafiylar va molikiylarda mavjud bo'lgan istehsonni rad qiladilar. Shofe'iylik, asosan, Indoneziya, Malayziya, Misr, Sudan, Keniya, Mali, Liviya kabi davlatlarda tarqalgan.

Hanbaliylik mazhabi asoschisi imom Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal (780–855) Bag'dod shahrida yashagan. Hanbaliylik mazhabida Qur'on va sunnat asosiy manba hisoblanadi. Ijmo va



sahobalarning gaplari keyingi o'rinlarda turadi. Qiyosni boshqa iloj qolmagandagina ishlatishga ruxsat beriladi. Mazkur mazhab izdoshlari kam sonli bo'lib, asosan, Saudiya Arabistoni, Yaman, BAA, Quvayt, Qatar davlatlari aholisi orasida tarqalgan. Sunniylikdagi to'rtala mazhab bir-biri bilan teng hisoblanadi. Mazhablar an'anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagani holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan farq qiladi. 2017-yildan O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Imom Moturidiy majmuasida «Kalom ilmi maktabi», moturidiylik ta'limotining yirik vakili Abul Mu'in Nasafiy ziyoratgohida esa «Aqoid maktabi»ni tashkil etildi. Ijmo - ilk islom davrida ulamolarning bir ovozdan qabul qilgan qarorlari. VIII–IX asrlarda musulmonlar orasida Qur'on oyatlari va hadislarni noto'g'ri tushungan toifalar paydo bo'ldi. Ular goh Allohni insonga o'xshash tasvirlar, goh uning xususiyatlarini inkor etar, payg'ambarlar, Qur'oni karim sha'niga nолоyiq fikrlarni bildirar edi. Mana shunday sharoitda sunniylik yo'nalishi olimlari ayrim oqimlarning buzg'unchi g'oyalarga bir qator raddiyalar berganlar. Natijada Abu Mansur Moturidiy (870–944) moturidiya ta'limotiga asos solgan. Moturidiy sof diniy aqida doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Moturidiyga ko'ra, inson hayotiy imtihonlar uchun yaratilgan. Shu bilan bir vaqtda unga ushbu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish va to'g'ri yo'lni topish uchun keng imkoniyatlar ham berilgan. Inson o'z xatti-harakatlarini tanlashda ixtiyorlidir. Buyuk alloma o'z qarashlari bilan hanafiylik ta'limotining Turon xalqlari an'analari, urf-odatlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berdi. Eng e'tiborlisi, islom olamining aksariyat mintaqalarida, Suriya, Iroq, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Afrika kabi mamlakatlarda moturidiylik ta'limoti hozir ham oliy, o'rta ta'lim tizimida va diniy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'qitib kelinadi.

Ash'ariya ta'limoti. Ushbu ta'limotga Abul Hasan Ash'ariy (873–936) asos solgan. Imom Ash'ariy umrining yarmini adashgan oqimlarga qarshi kurashga bag'ishlagan. Ash'ariya ta'limoti ham sunniylik aqidasiiga muvofiq ta'limot hisoblanadi. Ushbu ta'limot ham, asosan, mo'taziliya, qadariya, jabariya kabi adashgan guruhlarining aqidaviy g'oyalariga qarshi turgan. Ash'ariya ta'limoti, asosan, Iroqda, so'ngra saljuqiylar hukmronligi davrida Xurosonda rivojlangan. O'zbekistonda 2000-yilda Moturidiy tavalludining 1130-yilligi keng nishonlandi. Tasavvuf va unga o'zakdosh bo'lgan sufiy, mutasavvif atamalarining kelib chiqishi arab tilidan «jun, yung» ma'nosini bildiruvchi «suf» so'zidan olingan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:


1. Turon hududida islom dinining keng yoyilishiga xizmat qilgan omillarni sanang. Dinning yoyilishida madrasalarning o'rni qanday edi?

2. Islom dinining yuksalishida yurtdoshlarimizning xizmatlari qanday bo'lgan?

3. Ularning bugungi kundagi ahamiyati qanday?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: «Tarixdagi ajdodlarimiz xizmatining bugungi kundagi ahamiyati» mavzusida qo'shimcha ma'lumotlar asosida taqdimot tayyorlang.



O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Ta'lim

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni berish, ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish..

Tarbiyaviy: tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta'sirini tushuntira olish va o'zining mustaqil munosabatini bildirga olish, tarixdan to'g'ri saboq chiqarish ko'nikmalari shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish, milliy qadriyatlarning mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

III. Yangi mavzu bayoni:

Abu Homid G'azzoliy (1058–1111) o'z davrida «Hujjatul islom» (islom dalili) nomi bilan mashhur bo'lgan. G'azzoliy Sharq va G'arbda ilohiyotchi, faylasuf sifatida tanilgan. G'azzoliyning «Ihyou ulumid-din» asarining «Ilm kitobi» qismida «ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi odoblari haqida» ibratli fikrlar bayon qilingan. U: «Ilmning avvali sukut qilish, keyin tinglash, keyin uni yod olish, keyin unga amal qilish, keyin esa tarqatish – boshqalarga o'rgatishdir», – deb yozadi.

Ilmni kimlarga o'rgatmoq lozim, degan savolga «dunyoviy va diniy ilmlarni faqat qalbi ezgulikka limmo-lim insonlarga o'rgatish lozim. Ilm faqat ezgulikka xizmat qilishi kerak», degan fikrni ilgari suradi. S. P. Tolstov «Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab» asarida Xorazmdagi Jonbosqal'a va Tuproqqal'adan topilgan zardushtiylarning ibodatxonalari haqida shunday yozadi: «Inshootlarning

o'rtasida qo'sh devorlar bilan qurshalgan va ichkariga aylanma yo'lagi bo'lgan to'g'ri burchakli bino bo'lgan. Xonalardan 140 ta teriga va yog'ochga yozilgan turli mazmundagi hujjatlar hamda 138 ta katta-kichik haykalchalar topilgan».

Turonda islomga qadar ham bir necha asrlar davomida shakllangan ta'lim tizimi mavjud edi. Mintaqada islom dini mafkurasining o'rnatilishi natijasida mahalliy ta'lim tizimida «*madrasa*» deb atalgan oliy ta'lim muassasalari paydo bo'ladi. Shu ma'noda, ilk oliy o'quv yurti VIII–IX asrlarda Buxoroda paydo bo'lgani ham bejiz emas. Ulardan eng mashhuri Farjak madrasasi bo'lib, u 937-yili yonib ketgan. Samarqandda X asrda 17 ta madrasa tashkil etilgan. Maktabdan yuqori bosqichdagi ta'lim dargohlari to «*madrasa*» nomi qat'iylashguncha «*majlis*» deb atala boshlangan va ularda *shayx*, *hakim* yoki *ustoz* deb atalgan ilmiy kishilar dars berganlar. Turondagi davlatlar ma'naviy va ma'rifiy hayotiga nazar tashlasak, bu hududlarda savodxonlik yuksak darajada bo'lgan.

Masalan, Mug' tog'idan topilgan hujjatda VIII asrda o'lkamizda ro'y bergan voqealar haqida so'z boradi. Bu hujjat kul rang, ipak tolalari aralash «Xitoy» qog'oziga bitilgan. Hujjatni Divashtichning quli yozgan. Bu esa Turonda nafaqat erkin aholi, balki qullarning ham savodli bo'lishiga e'tibor qaratilganidan dalolat beradi.



Akademik A. Sagdullayevning «Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda» nomli kitobida sug'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'lganligi ta'kidlanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Biror-bir mamlakatda ilm-fanning rivojlanishi o'sha jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Agar siz ilmnining biror sohasini mukammal egallasangiz kimlar ko'proq manfaat ko'radi? Jamiyatga qanday manfaat yetadi?
3. Sizning bilim egallashingiz uchun dastlabki poydevor qayerda qo'yilgan?
4. Nima deb o'ylaysiz, yurtimiz mutafakkirlarining jahon ilm-fani rivojiga hissa qo'shishlarida ularning ustozlari va ta'lim dargohlarining o'rni qanday bo'lgan?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Yuqoridagi tarixiy manbaga tayanib, Xorazmda ibodatxonaga tutash binolarda huquq idoralari, ma'muriy-xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadigan joylar bilan birgalikda ta'lim maskanlari ham bo'lganligini asoslashga harakat qiling.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi


38 listdan iborat O‘zbekiston tarixi fanidan 7-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**